

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./MLKQ6505>  
UDC: 347.2:316.422(045)(575.1)

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STARTAPLAR FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

**Tojiboyev Akbar Zafar o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ommaviy huquq fakulteti dekani o'rinbosari,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.  
ORCID: 0000-0002-9873-6061  
E-mail: a.tojiboyev@tsul.uz

**Annotatsiya.** Jahon amaliyotida innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida e'tirof etiladigan hamda barqaror rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratadigan, turli-tuman muammolarni yechishga qodir bo'lgan muhim omildir. Bugungi kunda yuridik fanga innovatsiya va innovatsion investitsiya shakllari hamda turlariga doir yangi tushunchalar kirib kelishda davom etmoqda. Zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan startaplar, venchur loyihalar kabi innovatsion tushunchalar bunga yaqqol misoldir. Mazkur maqolada mamlakatimizda startaplar faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sanab chiqilgan hamda ular xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Xususan, maqolada innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplar mavqeyini belgilash, intellektual mulk natijalari huquqiy muhofazasini yanada optimallashtirish, startaplar faoliyatida shartnomaoldi muzokara institutini takomillashtirish, startaplar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash kabi yo'nalishlarda qonunchilik bazasini takomillashtirish lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, startaplar mavqeyini alohida qonun bilan belgilash, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan startap natijalariga bo'lgan huquqni davlat va loyiha egasi o'rtasida taqsimlashga oid qonunchilikdagi normalarni takomillashtirish, venchur investor va startap o'rtasida tuziladigan shartnomaoldi kelishuvlarni ishlab chiqish hamda startaplarga davlat tomonidan turli imtiyozlar taqdim etish kabi masalalar ilmiy-huquqiy tomondan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** startap, innovatsiya, innovatsion faoliyat, startap ekotizimi, intellektual mulk, moliyalashtirish, startap va investor o'rtasidagi shartnoma, korporativ shartnomalar, investitsion platformalar.

### ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СТАРТАПОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Тожибоев Акбар Зафар угли,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
и.о. доцента, заместитель декана факультета публичного права  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В мировой практике инновации признаны главной движущей силой экономического роста и являются важным фактором, способным решать различные задачи, создавая условия для устойчивого развития. Сегодня в юридическую науку продолжают поступать новые представления о формах и видах инноваций и инновационных инвестиций. В частности, в качестве примеров можно привести такие инновационные концепции, как стартапы, основанные на современных инновационных идеях, разработках и технологиях,

венчурные проекты. В данной статье приведены и проанализированы на основе опыта зарубежных стран основные направления совершенствования правового регулирования стартапов в нашей стране. Так, в статье упоминается о необходимости совершенствования нормативно-правовой базы в следующих направлениях: определение положения стартапов в реализации инновационной политики, дальнейшая оптимизация правовой охраны результатов интеллектуальной деятельности, совершенствование института преддоговорных переговоров в деятельности стартапа и совершенствование системы государственной поддержки стартапов. В статье даны научно-правовые обоснования таким вопросам, как определение положения стартапов отдельным законом, совершенствование норм законодательства касательно распределения права на результаты финансируемого государством стартапа между государством и владельцем проекта, разработка преддоговорных соглашений между венчурным инвестором и стартапом, а также предоставление стартапам различных государственных льгот.

**Ключевые слова:** стартап, инновация, инновационная деятельность, стартап-экосистема, интеллектуальная собственность, финансирование, договор между стартапом и инвестором, корпоративные договоры, инвестиционные платформы

## THE MAIN DIRECTIONS FOR IMPROVING THE LEGAL REGULATION OF START-UPS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Tojiboyev Akbar Zafar ugli,**

Deputy Dean of the Faculty of Public Law,  
Tashkent State University of Law,  
Acting Associate Professor, PhD

**Abstract.** In practice, innovations are recognized as the main driving force of economic growth and are an important factor capable of solving various problems, and creating conditions for sustainable development. In this article, the main directions for improving the legal regulation of startups in our country are listed and they are analyzed based on the experience of foreign countries. In particular, the article mentions the need to improve the regulatory framework in such areas as determining the position of startups in the implementation of innovation policy, further optimizing the legal protection of the results of intellectual activity, improving the institution of pre-contractual negotiations in startup activities and improving the system of state support for startups. The article provides scientific and legal justification for such issues as determining the status of startups by a separate law, improving the norms of legislation regarding the distribution of the right to the results of a state-funded startup between the state and the owner of the project, as well as the development of pre-contractual agreements between a venture investor and a startup, as well as granting startups various government benefits.

**Keywords:** startup, innovation, innovative activity, startup ecosystem, intellectual property, financing, a contract between startup and investor, corporate contracts, investment platforms.

### Kirish

Startaplar taraqqiyoti va istiqboli, albatta, mamlakat turmush tarzining yuksalishi, aholi bandligi, turli xildagi yangi tovar, ishlar va xizmatlar taklif qilinaётganligi hamda raqobat muhitining jonlanishiga kafolat vazifasini o'tashdan tashqari, mamlakat iqtisodiyoti barqarorlashishi va yalpi ichki mahsulot hajmi o'sishiga ham katta ta'sir o'tkazadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda startap asoschilari bozorda rivojlanish uchun taklif etiladigan kapitallarning kamligi (63 %), yirik kompaniyalarning innovatsion texnologiyalarga befarqligi (53 %; atigi 35 % yirik kompaniyalar startaplar bilan ishlashga qiziqish bildirgan) hamda sohada malakali mutaxassislarning kamligi (47 %) kabi muammo va to'siqlarga duch kelmoq-

da [1]. O'zbekistonda startaplar faoliyatida vujudga kelayotgan muammolarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq: *innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplar mavqeyini belgilash; intellektual mulk natijalarining huquqiy muhofazasini yanada optimallashtirish; startaplar faoliyatida shartnomaoldi muzokara institutini takomillashtirish; startaplar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash.*

### **Material va metodlar**

Tadqiqot doirasida taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlar qo'llandi. Shuningdek, ushbu maqolada O. Oqyulov, N. Imomov, S. Gulyamov, Q. Mehmonov, S. Tojiboyevlar [2]ning ilmiy ishlanmalaridan foydalangan holda innovatsiya, innovatsion investitsiya, intellektual mulk, startaplarga ko'rsatilayotgan imtiyozlar, startap bilan bog'liq soliq va boshqa nizolar borasidagi qarash va takliflar shakllantirilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

*Innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplar mavqeyini belgilash*

Startaplar ijtimoiy hayotning o'ziga xos voqeligi bo'lgan tushunchadir. Startap va innovatsiya o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Ko'pgina manbalarda startaplar innovatsion jarayonlarning mahsuli sifatida talqin qilinadi. Ta'kidlash lozimki, innovatsiya ilm-fan – ijod – ishlab chiqarish (sanoat) tizimlarining o'zaro integratsiyalashuviga olib keladigan murakkab jarayondir.

O. Oqyulov qarashlarida innovatsiya iqtisodiy va ijtimoiy turmushda taraqqiyot manbayi, davlat boshqaruvi, maqsadli ta'sir ko'rsatish obyekti, investitsiya shakli, tadbirkorlik faoliyatining alohida yo'nalishi sifatidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi [3]. Muallifning fikricha, dunyo bo'yicha innovatsiya tashkiliy-huquqiy shaklining eng ko'p tarqalgan turi startaplar hisoblanadi.

N. Imomovning fikricha, innovatsiyalar intellektual mulkning yangi obyektlari hisoblanadi va fuqarolik huquqining mazkur tarmog'i normalari bilan tartibga solinishi lozim [4].

O'z navbatida, S. Gulyamov innovatsion faoliyat yangi bilimlar olish va uni bozorning boshqa ishtirokchilariga realizatsiya qilish bilan bog'liq tijorat faoliyat ekanligini ta'kidlaydi [5].

Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldi ki, startaplar ushbu innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlarini bosib o'tish bilan birga, nafaqat innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan ilmiy-ijodiy ishlanmalarning sanoatda ishlab chiqarish va foydalanish uchun mo'ljallanganligi, balki innovatsion yondashuvlar asosida sanoatda muayyan muammolarga yechim taklif qilayotganligi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, startaplar innovatsiyaning bir ko'rinishi, ba'zan ushbu jarayonni olib boruvchi subyekt sifatida innovatsion loyiha va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda faol namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Nazarimizda, startaplar innovatsion faoliyat va jarayonlarning ajralmas o'zagi bo'lganligi bois uning mavqeyi ham qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sanaladi. Hujjat bilan innovatsiya, innovatsion faoliyat tushunchalari, innovatsion faoliyat ishtirokchilari, innovatsion faoliyat infratuzilmalari subyektlari haqida qoidalar ishlab chiqilgan. Vaholanki, innovatsion faoliyatning asosiy negizi va drayveri bo'lgan startaplar haqidagi qoidalar qonunda umuman aks etmagan. Qonunning 3-moddasida innovatsion faoliyat sifatida yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydigan faoliyat qayd etilgan. *Shu o'rinda savol tug'iladi: qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan innovat-*

*sion faoliyatni olib borish kimning “cheqi”ga tushadi?* Albatta, bu faoliyat yirik va bozorda ustun mavqelarga ega bo‘lgan kompaniya va korporatsiyalar tomonidan amalga oshirishini kutish noo‘rin bo‘lar edi. Ular odatda, istiqbolli startaplarni qidirish va moliyalashtirish bilan shug‘ullanishi ko‘proq manfaat olib keladi. Oxir-oqibat innovatsion faoliyat kichik biznes guruhi yoki jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishi aniq. Shu ma’noda startaplar innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish maqsadida katta sahnaga chiqib keladi.

MDH davlatlarining innovatsion qonunchiligiga nazar tashlar ekanmiz, ularda ham xuddi bizdagi holatlar takrorlanishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Ukraina Respublikasining 2002-yil 4-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi [6], Belarus Respublikasining 2012-yildagi “Belarus Respublikasida davlat innovatsion siyosati va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi [7], Qozog‘iston Respublikasining 2006-yil 23-martdagi “Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qonun [8]larida ham startaplar haqida alohida qoidalar o‘z aksini topgan emas. Lekin O‘zbekiston qonun ijodkorlari bu bilan o‘zlarini oqlamasligi lozim. Chunonchi, ushbu qonunlar qabul qilinish paytida startap tushunchasi umumfan va ijtimoiy muomalaga hali to‘liq kirib kelmagan edi. Vaholanki, Yevropaning rivojlangan davlatlaridan biri Fransiyaning 2006-yildagi “Ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha dastur to‘g‘risida”gi hamda 2014-yildagi “Biznes loyihalarni investitsiyalash tartibi to‘g‘risida”gi Qonun [9]lari, shuningdek, Koreya Respublikasining innovatsion siyosatni ta‘minlovchi turli qonunlarida [10] startaplarning mavqeyi alohida belgilangan.

Darhaqiqat, 2020-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan startap sohasini tartibga soluvchi maxsus “Startaplar to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi taqdim etildi. Lekin ushbu qonunning kelajakda qabul qilinishi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda

startaplar to‘g‘risidagi qoidalar aks etmasligi kerak, degan qarashga sabab bo‘lmasligi lozim.

Fikrimizcha, innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplarning mavqeyini mamlakatimizning innovatsiya sohasidagi asosiy qonuni bilan ham alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasini startap tushunchasi bilan to‘ldirish taklif qilinmoqda.

O‘z navbatida, shu orqali ushbu sohada quyidagi chalkashliklarning oldini olishga hissa qo‘shish mumkin:

birinchidan, startaplarning mavqeyi qonun darajasida mustahkamlanishi;

ikkinchidan, startaplar ta‘rifiga aniq yechim taklif qilinishi;

uchinchidan, startapning innovatsion jayronlarni amalga oshiruvchi subyekt va drayver sifatidagi o‘rni aniqlashishi.

*Intellektual mulk natijalarining huquqiy muhofazasini yanada optimallashtirish*

Mamlakatimizda startaplar faoliyatida intellektual mulk natijalariga bo‘lgan huquq va uni huquqiy muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy baza shakllantirilgan bo‘lib, zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilmoqda. Startap innovatsiya tashkiliy-huquqiy shaklning yangi va dinamik rivojlanayotgan turi bo‘lgani bois ushbu sohada fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda o‘ziga xos xususiyatlar ega. Bugungi kunda mazkur sohaga oid huquqiy bazani zamonaviy talab va tendensiyalarga moslashtirish zarurati vujudga kelgan. Ayniqsa, bugun davlat mablag‘lari va buyurtmasi hisobiga faoliyat olib boradigan startap loyihalarga nisbatan huquqlarni aniqlash, mutlaq huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq masalalar dolzarblik kasb etmoqda.

L. Toshpo‘latovanning fikricha, davlat mablag‘lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektlari maqomini aniqlash sohasi-



da yetarlicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Muallif sohani tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi to'g'risida"gi qonuni loyihasini ishlab chiqishni o'rta-ga tashlaydi [11].

G. Vapayevaning aytishicha, sohadagi bo'lg'usi qonunning asosiy maqsadi va vazifasi istiqbolli ilmiy loyihalarni baholash, joriy qilish va sanoatda o'zlashtirish, innovatsion loyihalarni ishlab chiquvchi va joriy qiluvchi korxonalar, avvalambor, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat sohalari-ga qo'shimcha rag'batlantirish va imtiyozlar berish hamda milliy innovatsion tizim yaratish hisoblanadi [12].

Nazarimizda, mualliflarning qarashlarini inkor etmagan holda, bu o'rinda masalaning asosiy mohiyati – davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan startap faoliyat natijalariga bo'lgan huquqni taqsimlashdadir.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat intellektual mulkni xo'jalik muomalasiga kiritish jarayonini tezlashtirish uchun budget mablag'lari asosida yaratilgan intellektual mulk, ularning bevosita yaratuvchilari, ya'ni universitetlar, davlat tadqiqot institutlari, hatto xususiy firmalarga mutlaq huquqlarni berish yo'lidan borgan [13].

Davlat tomonidan moliyalashtirish hisobiga yaratilgan intellektual mulkka bo'lgan huquq va uni tijoratlashtirish masalasiga AQShda qabul qilingan Patent va savdo belgisi to'g'risidagi qonuni (*Patent and Trade-mark Law Amendments Act*) yoxud Bey-Doul qonuni (*Bayh-Dole Act of 1980*) va Stiven-son-Uaydler qonun (*Stevenson – Wydler Technology Innovation Act of 1980*) [14] ani-q yechim bergan. Masalan, Bey-Doul qonuniga muvofiq, hukumatning federal mablag'lari hisobidan moliyalashtirish natijasida yaratilgan ixtirolarga nisbatan universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va kichik korxonalarga mulk huquqi taqdim etilgan. Vaholanki, ixtirodan dunyoning boshqa mamlakatlarida ham foy-

dalana olish uchun federal hukumatga chaqirib olinmaydigan, tekin, mutlaq bo'lmagan litsenziya taqdim etilishi kerak. Binobarin, mutlaq litsenziya shartnomasi amal qilgan vaqtda litsenziat ham, litsenziar ham obyekt-dan foydalanishda teng hajmli huquqqa ega bo'ladi [15]. Stiven-son-Uaydler qonuni esa hukumat ilmiy tadqiqot laboratoriyalarida tashqi hamkorlar (universitetlar, ITI, xususiy korxonalar) bilan birgalikdagi tadqiqotlar davomida olingan, patentlangan natijalariga bo'lgan mulk huquqi tashqi hamkorlarga tegishli ekanligini qayd etadi.

Avstriya, Daniya, Germaniya, Yaponiyada nisbatan budget mablag'lari asosida yaratilgan "*professorlik imtiyozi*" deb nomlanuvchi, lekin bunda litsenziya to'lovlaridan hissa ko'rinishida intellektual mulkni ishlab chiquvchi mualliflar manfaatlariga rioya qiluvchi intellektual mulkka bo'lgan huquqni amalga oshiruvchi qonunlar joriy qilindi [16].

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Mamlakatimizda davlat mablag'lari hisobidan startap loyihalar, xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish turli qonun hujjatlari bilan tartibga solib kelinmoqda. Masalan, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida davlat buyurtmasi doirasidagi innovatsion faoliyat davlat bud-jeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi-gan bo'lsa, uning natijalari davlatga tegishli ekanligi qayd etiladi. Vazirlar Mahkamasi-ning 2020-yil 9-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ilmiy-tadqiqot ishlari-ga davlat buyurtmasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, davlat budjeti mablag'lari hisobiga ilmiy faoliyat subyektlari tomonidan olingan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquq davlatning ilmiy va oliy ta'lim, shuningdek, boshqa davlat muassasalari nomidan davlat-ga tegishli bo'ladi.

Xorijiy tajribani inobatga olgan holda mamlakatimizda ham davlat hisobidan moliyalashtiriladigan innovatsiya va startap faoliyati natijalarini xo'jalik muomalasiga jalb etishda AQSh tajribasidan foydalanish

maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan, “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonunga tegishli o’zgartirish hamda “Startaplar to’g’risida”gi Qonun loyihasiga davlat tomonidan startap loyihalarni moliyalashtirishga oid alohida qoida kiritish zarur. Ya’ni *O’zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonuni 12-moddasi yettinchi xatboshisi* hamda mos ravishda *O’zbekiston Respublikasining “Startaplar to’g’risida”gi Qonun loyihasiga* davlat budjeti mablag’lari hisobidan moliyalashtirilgan innovatsion, startap loyihalar natijalariga bo’lgan huquqni taqsimlashga oid normalarni takomillashtirish yuzasidan qoidalar kiritish maqsadga muvofiq.

Mazkur o’zgartirish va qo’shimchalar davlat mablag’lari evaziga moliyalashtiriladigan startaplarda mutlaq huquqlar kimga tegishli ekanligini aniqlash bilan birga quyidagilarga sababchi bo’lishi kutiladi:

birinchidan, davlat shofeligidagi startaplarning sezilarli ko’payishiga erishish;

ikkinchidan, loyiha mualliflarini moliyaviy rag’batlantirish shart-sharoitlarini normativ-huquqiy mustahkamlash;

uchinchidan, startaplarda intellektual faoliyat natijalarini moliyalashtirish sohasida davlat-xususiyl hamkorligi shart-sharoitlari, ularni rasmiylashtirish, amaliyotga joriy qilish va tijoratlashtirishni rag’batlantirish va takomillashtirish.

*Startap faoliyatida shartnomaoldi muzokara institutini takomillashtirish*

Startaplar faoliyatining samarali yo’lga qo’yilishida shartnomalar muhim o’rin egallaydi. Startaplarni moliyalashtirish tahlili shuni ko’rsatadiki, venchur investitsiyalashda startap va investor o’rtasidagi shartnomalar taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Odatda venchur investor va startap o’rtasida quyidagi shartnomalar bosqichma-bosqich tuziladi: xohish to’g’risidagi kelishuv (*ingl. Letter of intent*), investitsiyalash to’g’risidagi shartnoma, korporativ shartnoma bo’lgan jamiyat ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish to’g’risida-

gi shartnoma (*ingl. Shareholders’ agreement*) va eng so’ngida, agar startap dinamik tarzda o’sishga erishib, fond birjasida uning ulush va aksiyalari yuqori qiymatga baholansa, IPO, SPO yoki ulushlar oldi-sotdisi shartnomasi shular jumlasidandir. Shular orasidan startaplarning shartnomaviy munosabatlarini fuqarolik-huquqiy takomillashtirish nuqtayi nazaridan shartnomaoldi muzokarani tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Yekaterina Pannebakkerning fikricha, muzokaralarni boshqarishda eng ahamiyatli jarayon subyektiv xarakterdagi muzokaralarni boshqarishdir [17].

R. Yankovskiyning aytishicha, startap ulushini sotib olishdan oldingi bosqichdagi muzokara olib borish jarayoni anglo-sakson huquq tizimida xohish to’g’risidagi kelishuv (*ingl. Letter of intent*) deb nomlanadi. Muallif ushbu kelishuv alohida belgilangan shaklda tuzilishi hamda Rossiya huquqida uni haqiqiy deb topish uchun odatda dastlabki shartnoma yoki shartli bitimlarni tuzish lozimligini ta’kidlaydi [18].

D. Sidorenko startap shartnomaoldi jarayonlarini olijanoblik shartnomalari (*Djentalenskoe soglasenie*) deb nomlab, ushbu jarayonda startap va investor o’rtasida o’zaro tushunish memorandum (*MoU*), shartlar hujjati (*Term sheet*) yoki xohish to’g’risidagi kelishuv (*LOI*) tuzilishi mumkinligini aytadi. Shuningdek, huquqshunosning qayd etishi-cha, ushbu hujjatlar ichida xohish to’g’risidagi kelishuv taraflarga majburiyat yuklash xususiyatiga ega [19].

Ingliz huquqi yurisdiksiyasida startap va investor o’rtasida shartnomaoldi muzokaralar jarayonida *LOI* tuziladi. Ushbu kelishuv taraflarga yuridik majburiyat yuklaydi. Eng muhim tomoni – hali asosiy shartnoma, ya’ni investitsiya shartnomasini tuzishdan oldin ham qator shartnomalar rasmiylashtirilishi qayd etiladi. Investor, avvalo, startap jamoasining salohiyati va adekvatligi, startap texnologiyasining bozordagi istiqboli, startapning biznes modeli va moliyaviy ma-

salalari hamda yuridik masalalarini dastlabki tekshiruvdan (*ingl. Due diligence, DD*) o'tkazadi. Bu o'rinda yuridik masalalarga, asosan, startap intellektual mulkining ro'yxatdan o'tganligi, uning qonuniyligi, startap boshqaruvining talabga mos kelishi parametrlari kiradi. Shu jarayonning o'zida muzokara bosqichi ishtirokchilari o'rtasidagi tijorat axborotlarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma (*ingl. Non-disclosure agreement, NDA*) tuzish bilan amalga oshiriladi. Vaziyat shuni taqozo etmoqdaki, hali asosiy shartnomani tuzmasdan turib, shartnomaoldi muzokara bosqichining naqadar dolzarbligi namoyon bo'lmoqda.

N. Mixalskayaning ta'kidlashicha, ushbu sohadagi xorijiy huquq tartibining alohida ta'sirini Rossiya Fuqarolik kodeksining muzokaralar, oferta va aksept hamda shartnomaoldi jarayonlar qismida kuzatish mumkin [20]. Rossiya Fuqarolik kodeksining 434<sup>1</sup>-moddasi [21] "Shartnoma tuzish haqida muzokaralar" deb nomlanadi. Moddaga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar shartnoma tuzish haqidagi muzokaralarni o'tkazishi hamda shuning oqibatida kelib chiqadigan xarajatlarni mustaqil taqsimlashi mumkin. Taraflar shartnoma tuzilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Mazkur shartnomaoldi muzokara hujjatlari milliy fuqarolik qonunchiligimizdan o'rin egallamagan. Fuqarolik kodeksining 364-moddasiga binoan, shartnoma tuzish oferta va akseptlash yo'li bilan tuzilishi belgilangan. Bu shartnoma tuzish usulining ijobiy jihatlari e'tirof etgan holda bugungi kunga kelib, startap va investor o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni ta'minlash uchun yetarli huquqiy konstruksiyaga ega emas deb hisoblaymiz. Masalan, oferta-aksept yo'li bilan shartnoma tuzilgudek bo'lsa, investor startapning istiqboli, uning biznes modelini aniqlash va boshqa shu kabi imkoniyatlarini to'g'ri aniqlay olmaydi. O'z navbatida esa investorning muzokara bosqichida startapga tegishli bo'lgan tijorat axborotlarini

tarqatishi, taraflar tomonidan insofsiz tarzda harakat qilish oqibatida shartnoma tuzish imkoniyatini boy berish hamda zarar yetkazish kabi konstruksiyalarni amaldagi Fuqarolik kodeksining shartnoma tuzish bobi bilan tartibga solish mushkul.

Shu nuqtayi nazardan, startapning shartnomaviy-huquqiy asoslarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida *O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini shartnoma tuzish haqida muzokaralarga oid 366<sup>1</sup>-modda* bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda startap va investor o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar quyidagilarga sababchi bo'lishi kutiladi:

birinchidan, shartnomaoldi muzokara taraflarga majburiyat yuklashi va taraflarning muzokarada belgilangan majburiyatni bajarishda insofsiz harakat yoki harakatsizligi javobgarlikka sabab bo'ladi;

ikkinchidan, startapga tegishli bo'lgan tijorat sirlarining maxfiyligi investor tomonidan buzilgan bo'lsa, yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga olib keladi;

uchinchidan, shartnomaoldi muzokara olib borish uchun xarajatlar taraflar kelishuviga binoan taqsimlanadi;

to'rtinchidan, startap va investor o'rtasida tuziladigan LOI kelishuvi dastlabki shartnoma yoki shartli bitimlar tuzish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

*Startaplar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash*

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi hamda "Startaplar to'g'risida"gi qonunlari loyihalari-ga muvofiq, innovatsion faoliyat sohasidagi, shuningdek, startap ekotizimini tashkil etish, startaplarni ro'yxatga olish, monitoring qilish va rivojlantirish, shuningdek, biznes-inkubatorlar va boshlang'ich akseleratorlarni sertifikatlash bo'yicha vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi sanaladi (Hozirda esa mazkur tashkilot O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2018-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar doirasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun 50 mlrd so'm miqdorida mablag' ajratildi va ushbu mablag'ning muayyan qismigina startaplarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan [22]. Bu esa startup infrastrukturalari dinamik rivojlanayotgan mamlakatlarda (Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya) ajratilgan mablag'larga nisbatan juda kam. Taqqoslash o'rnida 2015-yilda Janubiy Koreya hukumati yangi biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun 12,6 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag' ajratgan.

AQShda kichik tadbirkorlik sohasida innovatsion g'oyalarni, shu qatori startup loyihalarga ko'maklashuvchi Kichik biznes innovatsion tadqiqot (Small Business Innovation Research (SBIR)), Kichik biznes texnologiya transferi (Small Business Technology Transfer (STTR)) hamda Federal va davlat texnologik hamkorligi (Federal and State Technology Partnership (FAST)) kabi Kichik biznes administratsiyasi (US Small Business Administration) tomonidan boshqariladigan davlat dasturlari mavjud [23].

Dastur doirasida startaplarni 150 ming AQSh dollari miqdorigacha olti oydan bir yilgacha bo'lgan muddatlarda moliyalashtiriladi.

2002-yilda Fransiyada ilmiy sohani rivojlantirish va ushbu sohadagi innovatsion loyihalarni rag'batlantirish maqsadida konsepsiya qabul qilindi. Ushbu konsepsiya asosida ayrim kichik innovatsion kompaniyalarga alohida yuridik maqom – "yosh innovatsion kompaniya" maqomi berildi. Kompaniya yosh innovatsion kompaniya maqomini qo'lga kiritishi bilan birga davlat tomonidan joriy qilingan soliq imtiyozlari va preferensiyalariga egalik qiladi.

Koreya Respublikasida 2017-yilda startaplarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida *Kichik, o'rta biznes va startaplarni*

*vazirligi (Ministry of SMEs and Startups)* tashkil etildi. Kichik, o'rta biznes va startaplarni vazirligi oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- firmalar va startup kompaniyalarni tashkil etishda qulay tizim yaratish;
- kichik, o'rta biznes va startaplarning rivojlanishi uchun mustahkam asos ishlab chiqish;
- kichik, o'rta biznes va startaplarning ishchi kuchi yetishmasligi muammolarini bartaraf etish;
- mikro tadbirkorlar salohiyatini mustahkamlash va yirik kompaniyalar hamda kichik, o'rta biznes va startaplarni o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash.

Shu bilan birga, 2013-yildan boshlab mamlakatda kichik va o'rta biznes hamda startup kompaniyalar uchun mo'ljallangan birja faoliyat yuritib keladi [24].

Davlat tomonidan startup loyihalarni moliyalashtirish tartibi, shartlari va vositalari qonun hujjatlari bilan chegaralab qo'yilishi lozim.

Mamlakatimizda startaplarga doir imtiyoz va preferensiyalar umumiy tartibda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni bilan belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyundagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 589-son qaroriga ko'ra, texnopark rezidentlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-sentabrdagi "Innovatsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 721-son qaroriga muvofiq, ilg'or texnologiyalar markazi rezidentlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi "Toshkent shahrining Yashnobod tumani-da innovatsiya texnoparkini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-5068-sonli farmoni bilan "Yashnobod" texnoparki rezidentlari uchun



davlat tomonidan alohida imtiyoz va preferensiyalar taqdim etiladi. Bu ko'maklar qatoriga, asosan, quyidagilar kiradi:

- yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yagona soliq to'lovi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari umumta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan;

- o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq, loyihani amalga oshirish doirasida o'z ehtiyoji uchun chetdan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskuna, xomashyo, materiallar, reaktivlar, butlovchi buyumlar hamda qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi.

Aytish kerakki, startaplar sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlar texnopark va innovatsion markazlar rezidenti bo'lgan taqdirdagina soliq, majburiy ajratma va bojxona to'lovlaridan ozod etiladi. Barcha startaplar ham texnopark va innovatsion markazlar rezidenti bo'lish imkoniyatiga birdek ega emas. Shu nuqtayi nazardan, startap tushunchasi ta'rifidan kelib chiqqan holda, startap kompaniya huquqiy maqomiga mos bo'ladigan barcha subyektlarga davlat tomonidan muayyan imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilishi lozim.

Startap kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash va startap loyihalarini ishga tushirishdan to tugagunga qadar soliq imtiyozlarini o'z ichiga olgan, kichik tadbirkorlikni kreditlash va investitsiya kiritadigan startap investorlariga soliq yukini kamaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Qolaversa, investitsiyaviy nizolarda startap misolida korporatsiyalarga oid soliq siyosati ham muhim sanaladi [25, 26]. Qonunchiligimizga binoan, startap kompaniyalar-

ning odatiy texnologik ishlab chiqarishda foydalanadigan kichik biznes subyektlaridan aniq chegaralari belgilanmaganligi hamda startap kompaniya maqomi tadbirkorlik qonunchiligida aks etmaganligi ularga nisbatan soliq va boshqa turdagi imtiyozlarni qo'llashni ortga surib kelmoqda. Bunda, eng avvalo, startap faoliyati tadbirkorlik faoliyati ekanligi, startap kompaniya esa tadbirkorlik subyekti tasnifiga mansubligini asoslagan holda, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda kraudfanding platformasi va venchur investitsiya infratizimi startap loyihalari hamda innovatsion mahsulotlarni moliyalashtirishdagi qulay va samarali mexanizm ekanligi amaliy jihatdan isbotlandi. Xususan, *statista.com* internet portalining axborotiga ko'ra, zamonaviy tendensiyalar sharoitida kraudfanding platformasi yordamida moliyalashtirilgan tranzaksiyalar qiymati 2019-yilda 6 mlrd 923 mln AQSh dollari-ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, bu son 8 mlrd 537 mln AQSh dollari ko'rsatkichiga ega bo'lishi taxmin qilingan [27]. Ushbu mexanizmlarni O'zbekiston iqtisodiyoti uchun joriy etish kelgusida innovatsion iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish uchun sharoit yaratadi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida startap tizimini jonlantirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish maqsadida *"Investitsiya jalb qilishning muqobil usullari to'g'risida"gi* qonunini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. *"Investitsiya jalb qilishning muqobil usullari to'g'risida"gi* qonuni startap loyihalari yoxud innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning huquqiy bazasi bo'lib, u kelajakda innovatsion investitsiyalarni jalb etish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalishiga ulkan hissa qo'shish bilan birga, startaplarni

moliyalashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi:

- investitsiya jalb qilishning muqobil usullari tushunchasi va tamoyillari;
- investitsion platformalar orqali investitsiyalashning usullari, tartibi va shartlari;
- investitsion platforma operatorining huquqiy mavqeyi;
- investitsion platforma tashkil qilish bo'yicha faoliyatni tartibga solish va nazorat qilish;
- investorning loyihalarni moliyalashtirish oqibatida mukofotlashtirish usullari, tartibi va shartlari;
- investitsion platformada tuziladigan bitimlar turlari va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlariga ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga sababchi bo'ladi.

### Xulosalar

Umuman olganda, startap faoliyatni qulay huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sha-

roitlar yaratish, innovatsion loyihalar hamda yangi ishlanmalarni moliyalashtirish, innovatsion faoliyat subyektlariga soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalar berish orqali rag'batlantirish zarur. Bundan tashqari, startaplar faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishni takomillashtirish maqsadida quyidagi mazmundagi yo'nalishlarda ishlar olib borilishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, startaplarning rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;

ikkinchidan, startapning faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan startap loyihalar yaratishga oid davlat buyurtmasini bajarish;

to'rtinchidan, startap ekotizimi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish;

beshinchidan, startaplar faoliyatini moliyalashtirish uchun xususiy sektor mablag'larini jalb etish bo'yicha shart-sharoitlar yaratish.

## REFERENCES

1. O'zbekiston startap ekotizimi tahlili [Analysis of the startup ecosystem of Uzbekistan]. Startup Indicator Uzbekistan. 2020, 19 p.
2. Tojiboev A., Sharakhmetova U., Tojiboyev S. Between public and private-state entity as a party to international commercial arbitration: Lessons for the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation (EDN PVOVRU)*, 2020, vol. 24, no. 6, pp. 581–591. DOI: 10.37200/IJPR/V24I6/PR260062.
3. Zafarovich T.S. Different Approaches in Enforcement of Arbitral Award Annulled at the Place of Arbitration. *Miasto Przyszłości – City of Tomorrow*, 2022, vol. 25, pp. 320–323. Available at: <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/385/>.
4. Ibrohimov A.A.O., Koryogdiyev B.U.O., Tojiboyev S.Z. Korporativ niqoblarni olib tashlash konsepsiyasi va uni O'zbekiston korporativ huquqida takomillashtirish masalalari [The concept of removing corporate masks and issues of its improvement in corporate law]. *Oriental Renaissance*:

*Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2022, vol. 2 (1), pp. 1068-1082. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporativ-niqoblarni-olib-tashlash-konsepsiyasi-va-uni-ozbekiston-korporativ-huquqida-takomillashtirish-masalalari/>. DOI: 10.24412/2181-1784-2022-1-1068-1082/.

5. Tojiboyev A. The role of stabilization clause in investment contract. *Review of Law Sciences*, 2018, no. 2, pp. 37–41, EDN WRUUXO. Available at: [https://www.elibrary.ru/download/elibrary\\_44347285\\_13645760.pdf/](https://www.elibrary.ru/download/elibrary_44347285_13645760.pdf/).

6. Tojiboyev A.Z.U. Deyatel'nost' startapov kak ob'yekt grazhdanskogo prava [Activities of start-ups as an object of civil law]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 01, pp. 79–87. DOI: 10.34920 'rls.1.2020.79-87/.

7. Tojiboyev A. Primeneniye nekotorykh startap-kontraktov i ego vazhnost' v usloviyakh onlayn-rezhima [The application of some start-up contracts and its importance in online conditions]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 2, pp. 119–123. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-2-119-123/.

8. Oqyulov O. Innovatsiya rivojlanishini ta'minlashda intellektual mulk huquqi institutlari ta'siri samaradorligini oshirish masalalari [Issues of increasing the effectiveness of the influence of intellectual property law institutions in ensuring the development of innovation]. Tashkent, Turon Zamin Ziya Publ., 2016, 300 p.

9. Imomov N.F. Intellektual mulkning yangi obyektlari [New objects of intellectual property]. Tashkent, 2011.

10. Gulyamov S.S. Voprosy grazhdansko-pravovogo regulirovaniya innovatsionnoy deyatel'nosti [Issues of civil law regulation of innovation activities]. *Review of the Legislation of Uzbekistan*, Tashkent, 2011, no. 1-2, p. 5.

11. About innovative activity. Law of Ukraine, dated 2002, July 4, No. 40-IV. Available at: [http://base.spinform.ru/show\\_doc.fwx?rgn=9542/](http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=9542/).

12. National Legal Internet Portal of the Republic of Belarus. Available at: <https://www.pravo.by/document/?guid=3871&p0/>.

13. Paragraph. Information system. Kazakhstan. Available at: [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=300499/](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=300499/).

14. Official Journal of the French Republic (JORF). Available at: <https://www.legifrance.gouv.fr/>.

15. Leshakova N.P. State regulation of innovative development of the Republic of Korea. *Russian Journal of Innovation Economics*, 2017, vol. 7 (2), pp. 161–174.

16. Toshpo'latova L.H. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan yaratilgan sanoat mulki obyektlarining huquqi maqomi [Legal status of industrial property objects created at the expense of state budget funds]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2008.

17. Vapaeva G.S. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish – moliyaviy inqirozdan chiqishning samarali vositasi sifatida [Innovative development of the economy as an effective means of getting out of the financial crisis]. Intellektual mulk huquqi: rivojlantirish istiqbollari Intellectual property rights: prospects for development. Tashkent, Justice Publ., 2012, 108 p.

18. Kozyrev A.N. Razvitiye zakonodatel'stva ob intellektual'noy sobstvennosti [Development of intellectual property legislation]. Available at: <http://www.akdi.ru/pravo/iam/1/htm#4/>.

19. Stevenson–Wydler. Technology Innovation Act of 1980: Public Law 96–480 of October 21, 1980. *Industrial Property*, 1980, no. 7/8, p. 2.

20. Mehmonov Q. Mualliflik huquqiga ko'ra kompyuter dasturlari yaratuvchilarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari [Property and personal non-property rights of creators of computer programs according to copyright]. Intellectual property protection – the guarantee of spiritual development. *Proceedings of the scientific-theoretical seminar*, Tashkent, 2010, p. 49.

21. Cervantes M. Academic Patenting: How universities and public research organizations are using their intellectual property to boost research and spur innovative start-ups. Available at: <http://www.wipo.imt/sme/en/documents/>.

22. Pannebakker Ye. Letter of Intent in International Contracting. 2016, p. 21.

23. Yankovskiy R.M. Zakon startapa [Startup law]. *Startup*, pp. 117–122. ISBN 978-5-9904334-0-3122/
24. Sidorenko D. Zashchita startapov: vazhnost' i osobennosti [Startup protection: importance and features]. Available at: <https://sk.ua/>.
25. Mikhal'skaya N. Pis'mo o namereniyakh: v teorii i praktike [Letter of intent: in theory and practice]. Part 1. Theory of letter of intent. Available at: <https://zakon.ru/>.
26. Civil Code of the Russian Federation (CC RF). Available at: <http://base.garant.ru/10164072/>.
27. Xudaynazarov A. Sostoyaniye sistemy organizatsionnoy podderzhki i finansirovaniya startapov v Respublike Uzbekistan: problemy, ikh prichiny i resheniya [The state of the system of organizational support and financing of start-ups in the Republic of Uzbekistan: problems, their causes and solutions]. Tashkent, 2019, 6 p.
28. Halt G.B. Jr. et al. Intellectual Property and Financing Strategies for Technology Startups. *Springer International Publishing AG*, 2017, pp. 14–15. DOI: 10.1007/978-3-319-49217-9\_3/.
29. KONEK. Securities exchange exclusively for small and medium-sized enterprises (SMEs) and venture companies prior to listing on KOSDAQ. Available at: <http://koreanlii.or.kr/w/index.php/KONEK/>.
30. Tojiboyev S.Z. Taxation policy of host state in investor-state dispute settlement. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2022, vol. 2 (8), pp. 232–238. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/taxation-policy-of-host-state-in-investor-state-dispute-settlement/>.
31. Tojiboyev S.Z. The prospect of tobacco control regime in Uzbekistan in light of potential dispute under the UK-Uzbekistan bit. *International Conferences*, 2022, August, vol. 1, no. 7, pp. 46–51. Available at: <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/243/>.
32. Statista.com platform. Available at: <https://www.statista.com/outlook/335/100/>.



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,  
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.